

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI



**“XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARINI LOYIHALASH”
fanidan**

O'QUV DASTURI

Bilim sohasi:	600 000 – Xizmatlar
Ta'lim sohasi:	610 000 – Xizmat ko'rsatish
Ta'lim yo'nalishi:	5610600 - Xizmat ko'rsatish texnikasi va texnologiyasi (qishloq xo'jalik texnikasiga xizmat ko'rsatish).

QARSHI – 2022 yil

2022/9/16 14:44

Fanning o'quv dasturi "Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashtirish va servis" kafedrasining 2022 yil 16 06 dagi 18 - sonli, Muhandislik texnikasi fakulteti Uslubiy komissiyasining 2022 yil 24 06 dagi 11 - sonli, institut Uslubiy Kengashining 2022 yil 28 06 dagi 11 - sonli yig'ilishlarida ko'rib chiqilib tasdiqlangan.

Institut Kengashida muhokama etilib (2022 yil "28" 06 qarori № 11) bilan ma'qullangan.

Tuzuvchi:

R.X.Chorshanbiyev - QarMII "Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashtirish va servis" kafedrası katta o'qituvchisi

Taqrizchilar:

F.E.Begimqulov - QarMII "Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashtirish va servis" kafedrası dotsenti

D.R. Norchayev - Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash ilmiy-tadqiqot instituti katta ilmiy xodimi, t.f.d.

1. O'quv fanining dolzarbligi va oliy kasbiy ta'limdagi o'rni

O'zbekiston Respublikasida bozor iqtisodiyotini shakllantirish va rivojlantirish, iqtisodiy o'sish va aholining turmush darajasini ko'tarishning zaruriy sharti sifatida, mamlakatda makroiqtisodiy va moliyaviy barqarorlikka erishishni nazarda tutadi.

Mustaqil Respublikamiz halqining farovonligini o'sishi natijasida, qishloq xo'jaligini texnikalar bilan ta'minlanishi yildan-yilga oshib bormoqda. Ayniqsa, mamlakatimizda qishloq xo'jaligi sanoatining shakllanishi va barcha turdagi texnikalarning ishlab chiqarila boshlangandan so'ng bu ko'rsatkich yanada sezilarli darajada o'sdi. Mashinalarni texnik jihatdan soz bo'lishini ta'minlash uchun ularga texnik xizmat ko'rsatish tizimi shakllangan.

Qishloq xo'jaligida texnikalarning ortib borishi natijasida ularga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash korxonalarini ham rejalashtirishni taqoza etmoqda.

Ushbu fan dasturi mashinalarga xizmat ko'rsatish va ta'mirlashni amalga oshiruvchi korxonalarni loyihalash hamda respublikamizdagi ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar natijalari bilan bog'liq bo'lgan xizmat ko'rsatish va ta'mirlash sohasining yanada rivojlanishi masalalarini qamraydi.

2. O'quv fanining maqsadi va vazifasi

Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarda mashinalarga texnik xizmat ko'rsatish korxonalarini loyihalashni, solishtirma mehnat sarfi uskunalarining ish unumi, mashinalarga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlashga bo'lgan talablardan kelib chiqqan holda amalga oshirish bo'yicha bilim, ko'nikma va malaka shakllantirishdan iborat.

Fanning vazifasi – talabalarga ishlab chiqarish korpusini hisoblash va uni loyihalash, ishlab chiqarish jarayonini loyihalash, korxonani qayta qurish masalalarini o'rgatishdan iborat.

«Xizmat ko'rsatish korxonalarini loyihalash» o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida *bakalavr*:

-xizmat ko'rsatish korxonalarini loyihalashda talaba loyihalashga vazifani, korxona uchun maydon tanlashni, uni texnik-iqtisodiy asoslashni, korxonaning hamda loyiha tushuntirish xatini, bosh rejasini, loyiha texnik texnologik va qurilish qismlarini, qurilishni tashkil qilish sxemasini *bilishi kerak*;

-talaba xizmat ko'rsatish va ta'mirlash korxonalarida bajariladigan ishning hajmi, bajariladigan ishlar uchun solishtirma mehnat sarfi, ishlab chiqarish korpusidagi ustaxonalarni joylashtirish, yordamchi xizmatlarni tashkil qilish bo'yicha *ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak*;

-talaba xizmat ko'rsatish va ta'mirlash korxonalarining mehnat sarfi, unda ishlovchilarning soni, texnologik jarayonni bajarish uchun zarur bo'lgan asosiy texnologik uskunalar sonini aniqlash, loyihalangan ustaxona korxona ustaxonasi va yordamchi xonalarning maydonini ishlovchilar soni va uskunalar band qilgan maydon bo'yicha aniqlash, energiya bilan ta'minlash, yoritish, isitish, ventilyatsiya va yong'indan havfsizlik va sanitariya-gigiena ko'rsatgichlarini aniqlash, ishlab chiqarish jarayonini loyihalash va qayta qurish bo'yicha *malakalarga ega bo'lishi kerak*.

Mashinalarga xizmat ko'rsatish va ta'mirlash ishlari maxsus ustaxonalarda, mashinalarni saqlash joylarida ham olib boriladi. Buning uchun xizmat ko'rsatish va ta'mirlash korxonasi loyihalanganda uning ustaxonalari va mintaqalari zarur bo'lgan qurilma, asbob-uskunalar bilan jihozlagan bo'lishi lozim. Bunday uskunalar soni va ularning joylashishi xizmat ko'rsatish texnologiyasiga mos kelishi kerak.

Shuning uchun ham «Xizmat ko'rsatish korxonalarini loyihalash»da, xizmat ko'rsatish va ta'mirlash texnologik jarayonini bajarish uchun zarur bo'lgan uskunalar bilan jihozlash xizmat ko'rsatish va ta'mirlash ishlab chiqarish texnologiyasining ajralmas qismidir.

3. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)

1-modul. Agrosanoat kompleksining ta'mirlash-xizmat ko'rsatish bazasi

1-mavzu. Ta'mirlash - xizmat ko'rsatish bazasining strukturasi. Korxonalarning turlari va ularning tavsifi. Ish joylarini tashkil etish. Mashinalarga sotishdan oldin xizmat ko'rsatish.

2-mavzu. Umumiy holatlar va korxonalarni loyihalash tartibi. Loyihalashga doir asosiy holatlar va boshlang'ich ma'lumotlar. Korxonani qurilishi uchun maydon tanlash. Loyixalashning asosiy vazifalari.

2-modul. Xizmat ko'rsatish va ta'mirlash korxonalarining yillik ishlab chiqarish dasturini aniqlash

3-mavzu. Mashina va uskunalarni – ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish strategiyani tanlash. Ta'mirlash-xizmat ko'rsatishlar sonini aniqlash. Avtomobillarning ta'mirlash-xizmat ko'rsatishlar sonini aniqlash.

4-mavzu. Kombaynlarni ta'mirlash va ularga texnik xizmat ko'rsatish sonini hisoblash. Qishloq xo'jalik mashinalarni ta'mirlash va ularga texnik xizmat ko'rsatish hajmini aniqlash.

5-mavzu. Chorvachilik fermalari mashinalari va uskunalarning ta'mirlash-xizmat ko'rsatishlar sonini aniqlash.

3-modul. Ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatishdagi mehnat sarfini hisoblash

6-mavzu. Ta'mirlash va xizmat ko'rsatish ishlarining sonini yiriklashtirilgan hisoblash uslubiyati. Ta'mirlash korxonalarining ta'mirlash-xizmat ko'rsatish bo'yicha yillik hajmini texnologik uskunalari bo'yicha hisoblash.

7-mavzu. Yillik mehnat sarfini taqsimlash

8-mavzu. Ta'mirlash xizmat ko'rsatish obyektlariga yillik mehnat sarfini taqsimlash. Yillik ish hajmini turlari bo'yicha taqsimlash va ta'mirlash korxonasining tarkibini aniqlash.

4-modul. Ta'mirlash korxonasining asosiy ko'rsatgichlarini hisoblash

9-mavzu. Ishchi va uskunalarning vaqt fondi va ishlash rejimini vazifasi. Ta'mirlash korxonasining shtati. Ta'mirlash korxonalari

uskunalarini hisoblash va ularni tanlash. Ta'mirlash korxonasining maydonini hisoblash.

10-mavzu. Ishlab chiqrish korpusining komponovkasi

11-mavzu. Yuk oqimining sxemasini tanlash. Binoning gabaritlarini aniqlash. Ishlab chiqarish korpusining umumiy komponovkasi. Yuk oqimining grafigi. Binoning planini tuzish ketma-ketligi.

5-modul. Korxonaning qurilish qismini loyihalash

12-mavzu. Binolarni maqbullashtirish va tiplarga ajratish. Sanoat binolarining turlari. Binolarning hajm-planirovka yechimlari. Binonaning asosiy konstruktiv elementlari. Binolar karkasi kolonnalari. Temir beton balkalar va fermalar. Stropila osti konstruksiyalari.

13-mavzu. Qoplamalarning to'suvchi qismlarini ko'taruvchi elementlar. Devorlar va to'siq devorlar. Oyna solish. Darvozalar.

14-mavzu. Sanoat binolarida yengil ko'taruvchi va to'suvchi konstruksiyalarni ishlatish.

6-modul. Korxonaning energetik resurslarini loyihalash

15-mavzu. Siqilgan havoga bo'lgan talabini hisoblash. Suv, bug' va yonilg'iga bo'lgan ehtiyojni hisoblash. Kanalizatsiya, elektr energiyasi sarfini hisoblash.

16-mavzu. Mehnatni va tashqi muhitni muxofazasi tadbirlarini ishlab chiqish. Ta'mirlash korxonarida texnika xavfsizligi qoidalari. Korxona teritoriyasini va ta'mirlash ustaxonalarini planirovkasi va ularni saqlash. Ishlab chiqarish, omborxona va boshqa binolar va inshotlarning tuzilish va tarkibi. Ishlab chiqarish sanitariyasi qoidalari. Uskunalarni ishlatish va o'rnatish.

17-mavzu. Ta'mirlash korxonarida texnika xavfsizligi qoidalari. Korxona teritoriyasini va ta'mirlash ustaxonalarini planirovkasi va ularni saqlash. Ishlab chiqarish, omborxona va boshqa binolar va inshotlarning tuzilish va tarkibi. Ishlab chiqarish sanitariyasi qoidalari. Uskunalarni ishlatish va o'rnatish. Binolardagi mikroiklim parametrlarini aniqlash. Yerga

ulagich qurilmalarini hisoblash. Atrof muhit muhofazasi bo'yicha chora-tadbirlar.

7-modul. Loyihani iqtisodiy baholash

18-mavzu. Ishlab chiqarish fondining bahosini hisoblash. O'zgaruvchan xarajatlar bo'yicha birlik texnik xizmat ko'rsatish yoki ta'mirlashning tannarxini hisobi. Loyihaning iqtisodiy samaradorligini hisoblash.

4. Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlarda talabalar xizmat ko'rsatish va ta'mirlash korxonalarining o'zaro uzviy bog'langan ustaxonalarini va mintaqalarini loyihalash uchun zarur bo'lgan mehnat sarfini ishlovchilar sonini va uni ayrim ishlar bo'yicha taqsimlanishini, ishlab chiqarish maydonlarini va ularga o'rnatiladigan texnologik uskunalarni tanlash, ularning sonini hisoblash asoslarini o'rganadilar.

Amaliy mashg'ulotlarning taxminiy tavsiya etilgan mavzulari:

1. Ta'mirlash - xizmat ko'rsatish bazasining strukturasini, korxonalarning turlarini va ularning tavsifini o'rganish.
2. Loyihalashga doir boshlang'ich ma'lumotlarni tahlil qilishni va korxona qurilishi uchun maydon tanlashni o'rganish.
3. Loyihalanayotgan korxonada bajariladigan ta'mirlash-xizmat ko'rsatishlar sonini aniqlash.
4. Ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatishdagi mehnat sarfini hisoblash.
5. Loyihalayotgan korxonaning ta'mirlash-xizmat ko'rsatish yillik hajmini texnologik uskunalari bo'yicha aniqlash
6. Korxonaning yillik ish xajmini uning turlari bo'yicha taqsimlash va korxonaning tarkibini aniqlash.
7. Ishchi va uskunalarning vaqt fondini va ta'mirlash korxonasining shtati hisoblash.
8. Ta'mirlash korxonalari uskunalarini hisoblash va ularni tanlash.
9. Ta'mirlash korxonasining maydonini hisoblash.

10. Yuk oqimining sxemasini tanlash va binoning gabaritlarini aniqlash
11. Ishlab chiqarish korpusining umumiy komponovkasini va yuk oqimining grafigini qurish
12. Binoning asosiy konstruktiv elementlarini o'rganish.
13. Siqilgan havoga, suvga, bug'ga va yonilg'iga bo'lgan talablarni hisoblash
14. Korxonaning elektr energiyasiga bo'lgan talabini hisoblash.
15. Korxona ventilyatsiyasini, yoritilganligini hisoblash
16. Binolardagi yong'in havfsizligini va mikroiklim parametrlarini aniqlash, yerga ulagich qurilmalarini hisoblash.
17. Birlik ta'mirlash tannarxini, loyihaning iqtisodiy samaradorligini hisoblash.

5. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Talaba mustaqil ishini tashkil etishda fanning xususiyatlarini, shuningdek har bir talabaning akademik o'zlashtirish darajasini va qobiliyatini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalaniladi:

- darslik va o'quv qo'llanmalar bo'yicha fan boblari va mavzularini o'rganish;
- tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruzalar qismini o'zlashtirish;
- avtomatlashtirilgan o'rgatuvchi va nazorat qiluvchi tizimlar bilan ishlash;
- maxsus adabiyotlar bo'yicha fanlar bo'limlari yoki mavzulari ustida ishlash;
- yangi texnikalarni, apparaturalarni, jarayonlar va texnologiyalarni o'rganish;
- talabaning o'quv-ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan fanlar bo'limlari va mavzularni chuqur o'rganish;
- faol va muammoli o'qitish uslubidan foydalaniladigan o'quv mashg'ulotlari;
- masofaviy (distansion) ta'lim.

Tavsiya etilayotgan mustaqil ishlarning mavzulari:

1. Xizmat ko'rsatish va ta'mirlash korxonalarining turlari va ularning tasnifi.
2. Xizmat ko'rsatish va ta'mirlash korxonalari uchun ko'makchi ishlar hajmini hisoblash.
3. Diagnostika ishlarining hajmini va asosiy diagnostika mashinalarining sonini hisoblash.
4. Avtoservis korxonasini isitish va shamollatish tizimi.
5. Avtoservis korxonasining asosiy texnik-iqtisodiy va solishtirma ko'rsatkichlari.
6. Faoliyat ko'rsatayotgan avtoservis korxonasini qayta qurish (rekonstruksiya).

6. Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlari va axborot manbalari

Asosiy adabiyotlar

1. J.D. Hill, Glynn Rhodes, Steve Vollar. Car Park Designers'. Handbook 2nd Revised edition. 2013.
2. Musajonov M.Z. Avtotransport tarmog'i korxonalarini loyihalash.- 2-nashr T.: A. Navoiy nomidagi O'zbekiston milliy kutubxonasi nashriyoti. 2011.-320 b.
3. Napolskiy G.M., Pugin A.V. «Avtotransport korxonalarini qayta qurish va texnik qayta jihozlash» T, TAYI. 2004 y.
4. Наполский Г.М. Технологический расчет и планировка станций технического обслуживания автомобилей.- М, МАДИ (ГТУ), 2003.- 53 с.
5. Мишин М.М. Проектирование предприятий технического сервиса.: Учебное пособие. - Мичуринск : Изд-во МичГАУ, 2008. -213 с.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Mirziyoyev SH.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va

2017 yil istiqbollariga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. //Xalq so'zi gazetasi. 2017 yil 26 yanvar, №11.

2. Mirziyoyev SH.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutqi. –T.: “O'zbekiston” NMIU, 2016. – 56 b.

3. Mirziyoyev SH.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruza 2016 yil 7 dekabr. – T.: “O'zbekiston” NMIU, 2016. – 48 b.

4. Mirziyoyev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. - T.: “O'zbekiston” NMIU, 2017. – 488b.

5. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida. - T.:2017 yil 7 fevral, PF-4947-sonli Farmoni.

6. Avtomobillar texnik ekspluatatsiyasi. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi avtotransport oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darslik sifatida tavsiya etgan. Prof. Sidiqnazarov Q.M. umumiy tahriri ostida, Toshkent “VORIS-NASHRIYOT”, 2008. – 560

7. Musajonov M.Z. Avtotransport tarmog'i korxonalarini loyihalash: Oliy o'quv yurtlari bakalavriat talabalari uchun darslik. –T.: «Ezgulik manbai» nashriyoti, 2007. -232 b.

8. Рассказов М.Й. Организация ремонтного производства агропрома. М.: Колос. 1990. 208 с.

9. Скиба А.П. Управление ремонтным производством в сельском хозяйстве. М.: Колос. 1990 236 с.

Internet saytlari

1. www.gov.uz- O'zbekiston Respublikasi hukumat portali.
2. www.lex.uz - O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.
3. www.ziynet.uz
4. www.worldeconomics.com
5. www.tradingeconomics.com

